

ABDULLA AVLONIY PEDOGAGIK FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Ismatova Jasminaxon Muhammad Ali qizi

*Nizomiy nomidagi TDPU Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tili va adabiyot yo`nalishi 2-
kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mashhur o'zbek ma`rifatparvari, haqiqiy shoir va jamoat arbobi, pedagog va drammaturg hayoti va ijodiga bir nazardir. Bugungi kunda Abdulla Avloniy va uning hayotiga bo'lgan qiziqishlar ortib bormoqda.*

Kalit so'zlar: *Abdulla Avloniy, asarlar, tarraqiyot, adabiyot, bilim, xalq, davr, ma`rifat, yetuk, olim, teatr, jadidchilik, maktab, pedagog va pedogogik, millat, gazeta, jurnal, muallim, kitob, tarbiya.*

*Eng yomon kishilar ilmga amal qilmaydigan kishilardir.
Agar tarbiya qiluvchi muallim olim bo'lib amalsiz bo'lsa,
bu shogirdlar axloqiga yomon ta'sir ko'rsatadi.
(A.Avloniy)*

Har bir davrning eng o'z mashurlari, namoyondalari bo'ladi. Shu jumladan, Abdulla Avloniy ham XX asr boshlarida yashab ijod qilgan va o'z muxlislari ko'nglidan joy olgan ma`rifatparvardir.

Abdulla Avloniy buyuk ma`rifatparvar va ta'lim-tarbiya fidoyisi edi. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" deb aytgan so'zlari o'z vaqtida naqadar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy nafaqat ma`rifatparvar, balki ustoz, mudarris va murabbiy hamdir. Bu so'zlar sermazmun bo'lmasin, buyuk ma`rifatparvar uchun kamdek go'yo. Abdulla Avloniy hayotiga nazar solsak, 1904-1905 yillardan ham ijodiy, ham amaliy ish bilan qizg'in shug'ullandi. O'z davrida shoir she'rlarini "Hijron" taxallusi bilan e'lon qildi. Maqolalarini esa "Mulla Abdulla", "Avloniy", "Abdulla Avloniy" nomlari bilan nashr ettirdi. Abdulla Avloniyning nima maqsadda turli taxalluslardan foydalanganligi bizga ma'lum emas, lekin keyinroq uning ko'p ishlattan laqablaridan biri "Indamas" bo'lgan edi. 1909-yilda ma`rifatparvar "Jamiyati xayriya" ochdi va mahalliy xalq bolalarining o'qib bilim olishi uchun pul yig'ib, maktablarga tarqatdi. Bu haqda hatto Orenburgdagi "Vaqt" gazetasi ham ma'lumot berib yozib chiqqan edi.

1913 yilning oxirida toshkentlik mashhur jadidlar-taraqqiyparvarlarning tashabbusi bilan "Turon" jamiyati maydonga keldi. Uning muassislaridan, jonkuyarlaridan biri Avloniy edi. Jamiyat qoshida teatr truppasi tuzildi. Avloniy

truppasi sahnalashtirgan birinchi asar Behbudiyning "Padarkush" asari bo'ldi. U bu bilan xalqning ma'naviy kamolotini, halqning ongini ochishda katta hissa qo'shdi.

Saqlanib qolgan tabarruk dasxatlar, yuzlab kitob va hujjatlarlarning guvohlik berishicha, Abdulla Avloniy o'zbek bolalar adabiyoti, o'zbek milliy teatri dramaturgiyasi, pedagogika va matbaachiligining asoschilaridandir. Avloniy Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan edi.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo va Kavkazning markaziy shaharlarida hamda Qozonda yuzlab ziyoli kishilar xurofot va chor Rossiyasining istibdodidan qoloq ahvolga tushib qoladi. Ayni shu vaqtda Avloniy o'z xalqining ijtimoiy-madaniy turmushini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida nihoyatda katta ma'rifatchilik ishlarini olib boradilar. Yevropacha usuldagi teatr to'garaklari tuzdilar, turli gazeta va jurnallar chiqardilar. Teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni "o'qitadigan usuli jadid", ya'ni yangicha, ilg'or usuldagi maktablar ochdilar va bu maktablarda mahalliy xalq bolalarini o'qitdilar. Ular o'z millatlaridan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy, bilimdon mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va shu yo'lda fidoyilik ko'rsatdilar.

Abdulla Avloniy ha shu maqsadda yashadi va ijod qildi. 1907-yili Miroboddagi uyida "Shuhrat" nomli gazeta nashr ettirdi. O'z mahallasida maktab ochdi, usuli jadid maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yohud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" va boshqa shu kabi darslik va o'qitish kitoblarini yaratdi. Maktab-maorif ishlariga ko'mak ko'rsatuvchi "Jamiyati xayriya" tashkil etdi. "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada "Maktab kutubxonasi" kitob do'konni ochdi. U ko'plab pedagogik ishlarni amalga oshirdi.

Abdulla Avloniy nafaqat xalq ma'naviyatini rivojlantirishda, balki, mamlakat iqtisodini rivojlantirish uchun ham juda ko'p harakat qildi. Hattoki, 1919-1920-yillarda Avloniy Afg'onistonning Hirot shahrining elchixonasida bosh konsul bo'lib ishlaydi. Xalqlarimiz o'rtasida birodarlikni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun Afg'oniston podshosi Omonullaxon tomonidan kumush soat bilan taqdirlanadi. Bular Avloniy shaxsiyatining tariximizdagi o'rni qanchalik muhim ekanligidan dalolat beradi. U 1934-yil 24-avgustda oshkent shahrida vafot etgan. Avloniy nomida Oliy ta'limning nomlanishi, ko'cha, mahallalarning nomi uning nomi bilan atalishi biz yoshlarni juda quvontiradi. Uning nomi barhayotdir. Buyuk jonkuyar ustozing nomi biz bilan mangu qolajak.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. <https://arboblar.uz/uz/people/avlioni-abdulla>

2. <https://sirlar.uz/abdulla-avlony-1878-1934-haqida-batafsil-ma-lumotlar-tarjimai-hol/>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/abdulla-avlony-asarlarida-ma-naviy-ma-rifiy-tarbiya-g-oyasining-aks-etishi/viewer>

